

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.12.2024 yildagi 900-son

Кучга кириш санаси

03.01.2025

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARINING ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTINI TASHKIL
ETISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son [Farmoni](#) ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 1-yanvardan boshlab kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari asosida ishlab chiqarish amaliyotining quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tartibini joriy etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin:

o'quvchilar uchun ishlab chiqarish amaliyoti va diplom oldi amaliyoti o'rniga yagona ishlab chiqarish amaliyoti tizimini joriy etish;

ishlab chiqarish amaliyotini o'taydigan o'quvchilarga tegishli tashkilotlardagi malakali mutaxassislarni “ustoz” sifatida biriktirish;

o'quvchilarning amaliyot jarayonida egallangan amaliy ko'nikmalarini ish beruvchilar bilan birgalikda baholash tizimini yo'lga qo'yish.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin:

amaliyot dasturlarini tegishli tarmoq va soha korxonalari (tashkilotlari) bilan kelishilgan holda ishlab chiqish hamda tasdiqlash;

amaliyotni tegishli tarmoq va soha korxonalarida (tashkilotlarida) tashkil etish;

kasbiy ta'lim tashkilotlari va ish beruvchilarning amaliyotlarni tashkil etish bo'yicha vazifalarini belgilash.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

2025-yil 1-yanvardan boshlab kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotlarini tegishli tarmoq va soha korxonalarida (tashkilotlarida) tashkil etsin;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish jarayonida o'quvchilarga korxonalardan (tashkilotlardan) tajribali mutaxassislarni “ustoz” sifatida biriktirilishini ta'minlasin;

korxonalardan (tashkilotlardan) biriktirilgan “ustoz”lar uchun ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish institutida “Germaniya tajribasi” asosida masofaviy (onlayn) o'quv kurslarini tashkil etsin;

har yili 1-oktabrga qadar “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilgan korxona (tashkilot)lar bilan kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari o'rtasida

ishlab chiqarish amaliyotini o'tash yuzasidan shartnomalar tuzish maqsadida hamkorlikni yo'lga qo'ysin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hududdagi korxonalarning (tashkilotlarning) mavjud imkoniyatlari va takliflari asosida doimiy ravishda o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish yuzasidan shartnomalar tuzishda kasbiy ta'lim tashkilotlariga ko'maklashsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A. Sharipov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2024-yil 28-dekabr,
900-son

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-
dekabrdagi 900-son qaroriga
1-ILOVA

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining (keyingi o'rinlarda — o'quvchilar) korxonada (tashkilotda) ishlab chiqarish amaliyotini (keyingi o'rinlarda — amaliyot) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

amaliyot — nazariy ta'lim berish jarayonida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, egallanadigan kasbga (mutaxassislikka) tegishli bo'lgan kasbiy bilim va ko'nikma ega bo'lishi uchun o'quv jarayonining amaliy qismini korxonalarda (tashkilotlarda) o'tkazish jarayoni;

amaliyot rahbari — o'quvchilarning amaliyotini tashkil etish, ularni korxonalarga (tashkilotlarga) amaliyot uchun joylashishi, amaliyot dasturiga rioya etilishi, amaliyot hisobotlari tayyorlanishi va yuritilishi, korxonadan (tashkilotdan) o'quvchilar uchun mas'ul xodim biriktirilishi kabi masalalarni muvofiqlashtiruvchi kasbiy ta'lim tashkiloti xodimi;

korxona (tashkilot) — kasbiy ta'lim tashkiloti bilan o'quvchilar amaliyotini tashkil etish bo'yicha shartnoma tuzgan yuridik shaxs;

ustoz — amaliyot davrida ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini o'tkazish uchun korxona (tashkilot) tomonidan biriktirilgan korxonaning (tashkilotning) malakali mutaxassisi;

shartnoma — kasbiy ta'lim tashkiloti va korxona (tashkilot) o'rtasida o'quvchilarning amaliyotini tashkil etish uchun tuzilgan hujjat.

3. Nazariy ta'lim berish jarayonida o'quvchilar tomonidan olingan bilimlarni mustahkamlash, egallanadigan kasb (mutaxassislik) bo'yicha zarur ko'nikmalarga va amaliy ish tajribasiga ega bo'lish amaliyotning maqsadi hisoblanadi.

4. Kasbiy ta'lim tashkilotlari tomonidan amaliyot dasturlari tegishli korxonalar (tashkilotlar) bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladi hamda tasdiqlanadi.

5. Amaliyot kasbiy ta'lim tashkiloti va o'quvchilar ta'lim olayotgan kasbga (mutaxassislikka) mos korxonalar (tashkilotlar) o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida tashkil etiladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi belgilangan tartibda shartnoma shakli hamda o'quvchilarning amaliyot kundaligi namunasini tasdiqlaydi.

7. Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish amaliyoti ushbu Nizomga **ilovaga** muvofiq sxema asosida tashkil etiladi.

2-bob. Amaliyotni tashkil etish va o'tkazish

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi har yili 1-oktabrga qadar "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilgan korxonalar (tashkilotlar) bilan kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari o'rtasida ishlab chiqarish amaliyotini o'tash yuzasidan shartnomalar tuzish maqsadida hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

9. Kasbiy ta'lim tashkiloti va korxona (tashkilot) o'rtasida amaliyotni o'tkazish bo'yicha shartnoma amaliyot boshlanishidan kamida uch hafta oldin rasmiylashtiriladi.

10. Amaliyotni tashkil etish bilan bog'liq jarayonlarga kasbiy ta'lim tashkiloti direktori mas'ul va shaxsiy javobgar hisoblanadi.

11. Kasbiy ta'lim tashkiloti direktorining amaliyotni tashkil etish bo'yicha buyrug'i amaliyot boshlanishidan kamida ikki hafta oldin qabul qilinadi.

Ushbu buyruqda o'quvchilarning ro'yxati va amaliyot o'tkaziladigan korxona (tashkilot) hamda kasbiy ta'lim tashkiloti tomonidan biriktirilgan amaliyot rahbarlari belgilanadi.

12. Kasbiy ta'lim tashkiloti amaliyot o'tkaziladigan korxona (tashkilot) bilan birgalikda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

13. Amaliyotning dastlabki kunida kasbiy ta'lim tashkilotidan amaliyot rahbari va korxonadan (tashkilotdan) biriktirilgan ustoz tomonidan o'quvchilarga:

korxonaning (tashkilotning) mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi hamda ichki mehnat tartib qoidalarini;

amaliyot davrida bajariladigan ishlar, ularni amaliyot kundaligida qayd etib borish tartibi, korxona (tashkilot)ning faoliyat yo'nalishlari tushuntiriladi.

14. Kasbning (mutaxassislikning) murakkablik darajasidan kelib chiqib, amaliyot o'tashning haftalik yuklamasi 36 — 40 akademik soatni tashkil etadi.

15. Uzrsiz sabablarga ko'ra amaliyot o'tamagan yoki amaliyot davrida qoniqarsiz baho olgan o'quvchilar yakuniy davlat attestatsiyasiga qo'yilmaydi.

16. Kasbiy ta'lim tashkilotining sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan o'quvchi o'z kasbi (mutaxassisligi) bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullangan taqdirda, amaliyotdan ozod qilinadi. Bunda o'quvchi kasbiy ta'lim tashkilotiga ish joyidan ma'lumotnoma va kasbiy faoliyatini aks ettiruvchi tavsifnoma taqdim etadi.

Ish joyiga ega bo'lmagan sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan o'quvchi amaliyot o'taydi.

17. O'quvchilarning amaliyot dasturlari bajarilishiga korxonadan (tashkilotdan) ustoz, kasbiy ta'lim tashkilotidan amaliyot rahbari mas'ul hisoblanadi.

18. Nogironligi bo'lgan o'quvchilarning amaliyotlari mos mehnat sharoitlariga ega korxonalarda (tashkilotlarda) tashkil etiladi.

19. O'quv rejasidagi fanlar bo'yicha qarzdorlikka ega bo'lgan o'quvchilar qarzdorlikni o'quv yili yakuniga qadar bartaraf etish sharti bilan amaliyotga jalb etiladi.

20. Quyidagi hollarda o'quvchilar amaliyotdan chetlashtiriladi:

uzrsiz sabablarga ko'ra 24 akademik soatdan ortiq amaliyot jarayonlarida ishtirok etmaganda;

amaliyot o'taydigan korxonaning (tashkilotning) ichki tartib qoidalarini buzgan hollarda;

o'quvchiga salomatligini tiklash bo'yicha doimiy tibbiy nazoratda turgan tibbiyot muassasasi komissiyasining xulosasi mavjud bo'lmaganda.

21. Amaliyotdan chetlashtirilgan yoki amaliyotni o'tash jarayonida bajargan ishlarining natijalari qoniqarsiz deb topilgan va fanlar bo'yicha qarzdorligi mavjud bo'lmagan o'quvchilarga yangi o'quv yili boshlangunga qadar qaytadan amaliyotni o'tash imkoniyati beriladi.

Bunda kasbiy ta'lim tashkiloti direktorining o'quvchini qayta amaliyotga yuborish haqida buyrug'i qabul qilinadi hamda unga amaliyot rahbari sifatida direktor o'rinbosari biriktiriladi.

22. O'quvchilar amaliyot o'tayotgan korxonada (tashkilotda) bo'sh ish o'rinlari mavjud bo'lsa, korxona (tashkilot) va o'quvchi o'rtasida qo'shimcha shartnoma tuzilishi va o'quvchiga ish haqi to'lanishi mumkin.

3-bob. Korxona (tashkilot), kasbiy ta'lim tashkiloti va o'quvchilarning vazifalari, huquqlari hamda majburiyatlari

23. Korxona (tashkilot) amaliyotni o'tkazish davrida:

kasbiy ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda amaliyotni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini belgilaydi;

kasbiy ta'lim tashkiloti bilan birgalikda o'quvchilar amaliyotini o'tkazish bo'yicha tegishli shartnomalarni rasmiylashtiradi;

korxonaga (tashkilotga) amaliyot o'tash uchun qabul qilinayotgan o'quvchilar tarkibini kasbiy ta'lim tashkiloti bilan kelishadi;

o'quvchilarga amaliyot jarayonlarida korxonaning (tashkilotning) malakali va tajribali mutaxassislar orasidan amaliyotchi bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan ustoz biriktiradi;

o'quvchilarni amaliyot davrida korxonada (tashkilotda) faoliyat yuritishi uchun korxona (tashkilot) rahbarining buyrug'ini rasmiylashtiradi;

o'quvchilarga mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha zarur ko'rsatma va tushunchalar beradi;

ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning korxonaga (tashkilotga) borish-kelish, ovqatlanish xarajatlarini qoplaydi;

o'quvchilarning amaliyotini o'tkazish rejalarida nazarda tutilgan ekskursiyalarni tashkil etadi;

o'quvchining amaliy ko'nikmalarini baholash jarayonida qatnashadi.

24. Korxona (tashkilot) amaliyotni tashkil etishda quyidagi huquqlarga ega:

o'quvchilarning amaliyotni o'tash vaqtida korxonaning (tashkilotning) ichki mehnat tartib qoidalariga amal qilishi yuzasidan ogohlantirish;

korxonaning (tashkilotning) ichki mehnat intizomini buzgan o'quvchilar haqida amaliyot rahbarini xabardor qilish;

amaliyot jarayonlarini sifatli tashkil etish bo'yicha kasbiy ta'lim tashkilotlariga takliflar berish;

bir nechta kasbiy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

Korxona (tashkilot) qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

25. Korxona (tashkilot) o'quvchilarning amaliyoti davrida quyidagi majburiyatlarni oladi:

o'quvchilarni ishlab chiqarish binolari, trening kabinetlari, zarur materiallar, asbob-uskunalar, texnik hujjatlar bilan o'z vaqtida ta'minlash;

o'quvchilarni korxonaning (tashkilotning) ichki tartib-qoidalarini, tibbiy (sanitariya), yong'in xavfsizligi qoidalarini hamda boshqa talablar bilan tanishtirish;

o'quvchilarni amaliyot davrida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va tegishli maxsus kiyim-kechak (maxsus kiyim) hamda ishlab chiqarish vositalari va xomashyo bilan ta'minlash;

o'quvchilar kundaligi yuritilishini nazorat qilish;

kasbiy ta'lim tashkiloti bilan birgalikda amaliyot jarayonlari yakuni bo'yicha hisobotlarni tayyorlash;

o'quvchilar amaliyotni o'tash davrida amaliyot o'tash joyida baxtsiz hodisaga uchragan holatlar bo'yicha javobgarlik masalalarini qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal qilish choralari ko'rish.

Korxonaga (tashkilotga) qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

26. Kasbiy ta'lim tashkiloti amaliyotni o'tkazish davrida:

korxona (tashkilot) bilan birgalikda o'quvchilarni uch hafta oldin amaliyotni o'tkazish bo'yicha tegishli shartnomalarni rasmiylashtiradi;

korxona (tashkilot) bilan amaliyot jarayonida ishtirok etadigan o'quvchilarning ro'yxatini tasdiqlaydi;

o'quvchilarni amaliyot o'tash uchun korxonaga (tashkilotga) yuborish va ularga amaliyot rahbarini biriktirish bo'yicha buyruq qabul qiladi;

o'quvchilar amaliyotga yuborilishidan oldin ularga mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari to'g'risida tushuntirish beradi;

amaliyot rahbarlari tomonidan amaliyot jarayonlarining tashkil etilganlik holati yuzasidan tizimli nazorat o'rnatadi.

27. Kasbiy ta'lim tashkiloti amaliyotni o'tkazish bo'yicha quyidagi huquqlarga ega:

amaliyot jarayonlarini sifatli tashkil etish yuzasidan korxonaga (tashkilotga) takliflar berish;

amaliyot jarayonini o'tkazish uchun tuzilgan shartnomalarga tomonlar bilan kelishgan holda o'zgartirishlar kiritish;

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z nomidan yuridik shaxslar bilan vakolati doirasida o'quvchilar amaliyotini o'tkazish bo'yicha shartnomalar va boshqa hujjatlar tuzish.

Kasbiy ta'lim tashkiloti qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

28. Kasbiy ta'lim tashkiloti amaliyot davri uchun quyidagi majburiyatlarni oladi:

o'quvchilarning ishlab chiqarish asbob-uskunolari, jihozlari, moslamalari va boshqa mehnat anjomlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini tushuntirish;

xom ashyo materiallari va elektr energiyasining tejimli sarflanishini ta'minlash;

korxonaning (tashkilotning) ma'muriy va ishlab chiqarish xodimi ko'rsatmalari va farmoyishlarini bajarish;

o'quvchilar va amaliyot rahbarlari faoliyatini hamda o'quvchilar kundaligi yuritilishini tizimli nazorat qilish.

Kasbiy ta'lim tashkilotiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

29. O'quvchilar amaliyotni o'tash davrida:

amaliyot jarayonini boshlashdan oldin korxonaning (tashkilotning) mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari yo'riqnomasi bilan tanishadi;

korxonaning (tashkilotning) ichki tartib qoidalariga bo'ysunadi;

korxonaning (tashkilotning) ustaviga muvofiq ish jarayonlarida belgilangan tartibda qatnashadi.

30. O'quvchilar amaliyotni o'tash bo'yicha quyidagi huquqlarga ega:

amaliyotda qatnashish;

amaliyotni o'tash joyi, reja-jadvali, dasturi va tartibi bilan oldindan tanishish;

korxonadagi (tashkilotdagi) mehnat va jamoat ishlarida qatnashish;

korxona (tashkilot) va kasbiy ta'lim tashkilotiga amaliyotni o'tkazish bo'yicha o'z fikr-mulohazalari hamda tegishli takliflarini bildirish;

o'quvchilar amaliyot o'tash uchun o'z kasbi (mutaxassisligi) bo'yicha boshqa ixtiyoriy korxonani (tashkilotni) tanlash huquqiga ega bo'lib, ushbu Nizomda belgilangan amaliyotni tashkil etish bilan bog'liq barcha jarayonlarni bajarish.

O'quvchilar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

31. O'quvchilar amaliyotni o'tash davrida quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- amaliyot dasturida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to'liq hajmda va sifatli bajarish;
- amaliyot kundaligini har kuni yuritish;
- amaliyot rahbari va ustoz tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish;
- korxonaning (tashkilotning) ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilish;
- kasalligi tufayli amaliyotga qatnasha olmagan taqdirda, tibbiy muassasadan uch ish kuni ichida ma'lumotnoma taqdim etish;
- amaliyot yakuni bo'yicha hisobot topshirish.

4-bob. Amaliyotni yakunlash

32. Korxonada (tashkilotda) amaliyotni o'tashda o'quvchilar tomonidan amaliyot kundaligi yuritiladi.
- Kundalik kasbiy ta'lim tashkiloti tomonidan tasdiqlangan holda beriladi va o'quvchi amaliyot o'tash davrida kundalikka amaliyot dasturi asosida kunlik bajargan ishlari va mustaqil ish topshirig'i bajarilishi to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni yozib boradi.
33. O'quvchilar amaliyot yakunida amaliyot kundaligini korxonadan (tashkilotdan) biriktirilgan ustozga imzolatib, uch ish kunida amaliyot rahbariga topshiradi.
34. Amaliyot yakunida amaliyotni to'liq o'tagan o'quvchilarga korxona (tashkilot) tomonidan amaliyot o'taganligi to'g'risida tavsifnoma beriladi.
35. O'quvchilar tomonidan amaliyotni o'tash jarayonida bajarilgan ishlarning natijalari va ularning egallagan amaliy ko'nikmalari kasbiy ta'lim tashkilotining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari hamda ish beruvchilarning vakillari rahbarligida 3-5 nafar a'zolardan iborat (har bir guruh uchun) alohida ishchi guruh tomonidan baholanadi.
36. O'quvchilarning amaliyot kundaliklari va hisobotlari amaliyot rahbari tomonidan kasbiy ta'lim tashkilotining arxiviga topshiriladi. Amaliyot kundaliklari va hisobotlar uch yil muddatgacha kasbiy ta'lim tashkilotining arxivida saqlanadi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

37. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Kasbiy ta'lim tashkilotlari
o'quvchilarining ishlab chiqarish
amaliyotini o'tkazish tartibi
to'g'risidagi **nizomga**
ILOVA

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish

SXEMASI			
Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	“Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilgan korxonalar (tashkilotlar) bilan kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari o'rtasida ishlab chiqarish amaliyotini o'tash yuzasidan shartnomalar tuzish maqsadida hamkorlikni yo'lga qo'yadi.	Har yili 1-oktabrga qadar
2-bosqich	Kasbiy ta'lim tashkiloti	1. Amaliyotni tashkil etish bo'yicha korxona (tashkilot) bilan shartnoma tuzadi. 2. Amaliyotni o'tkazish va amaliyot rahbarini biriktirish bo'yicha buyruq qabul qiladi. 3. O'quvchilarni amaliyot kundaligi bilan ta'minlaydi va amaliyot jarayonlarini monitoring qiladi.	Amaliyot boshlanishidan kamida uch hafta oldin Amaliyot boshlanishidan kamida ikki hafta oldin Belgilangan muddatlarda

3-bosqich	Korxona (tashkilot)	1. Malakali mutaxassislarni o'quvchilarga "ustoz" sifatida biriktiradi. 2. O'quvchilarni korxonaning (tashkilotning) mehnatni muhofaza qilish va ichki mehnat tartibi bilan tanishtiradi hamda zarur asbob-uskunalar va maxsus kiyim-kechak bilan ta'minlaydi.	Amaliyot boshlanishidan ikki hafta oldin Amaliyotning dastlabki kunida
4-bosqich	O'quvchi	1. Korxonada (tashkilotda) amaliyot o'taydi hamda amaliyot kundaligini to'ldirib boradi. 2. Amaliyot yakuni bo'yicha hisobot va amaliyot kundaligini amaliyot rahbariga topshiradi.	Belgilangan muddatlarda Amaliyot yakunidan so'ng uch ish kunida
5-bosqich	Korxona (tashkilot)	O'quvchi amaliyot jarayonlarida to'liq qatnashgan taqdirda, tavsifnoma beradi.	Amaliyot yakunida
6-bosqich	Kasbiy ta'lim tashkiloti, korxona (tashkilot)	O'quvchilar tomonidan amaliyotni o'tash davrida bajarilgan ishlarning natijalari va ularning egallagan amaliy ko'nikmalarini baholaydi.	Amaliyot yakunida

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-dekabrdagi 900-son qaroriga 2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari

RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining "Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish to'g'risida" 2009-yil 11-fevraldagi 40-son qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 30-oktabrdagi 677-son qaroriga 3-ilovaning 2-bandi.
3. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son Farmoni)" 2021-yil 23-iyuldagi 450-son qaroriga ilovaning 1-bandi.
4. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" 2021-yil 20-apreldagi O'RQ-682-son Qonuni)" 2022-yil 4-apreldagi 153-son qaroriga ilovaning 209-bandi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2025-y., 09/25/900/0006-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln

so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha

Kredit muddati: 2-48 oygacha

